

ONLAYN TA'LIM AFZALMI YOKI OFFLAYN TA'LIM?

Ochilova Ozoda Zufar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich talim fakulteti 4-bosqich talabasi

Ushbu maqolada onlayn va oflayn ta'lim haqida so'z yugurtirilgan. Ta'lim jarayonidagi qulayliklar va shu bilan bir qatorda har ikkala ta'limda ham yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolar hamda ularning yechimi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *Zamonaviy texnologiyalar, onlayn ta'lim, oflayn ta'lim, o'qituvchi, talaba, izolyatsiya, dars, internet.*

В статье рассматривается онлайн и офлайн образование. Освещены удобства в образовательном процессе, недостатки и проблемы, возникающие в обоих образованиях, а также пути их решения.

Ключевые слова: *Современные технологии, онлайн образование, офлайн образование, учитель, ученик, изоляция, урок, интернет*

This article discusses online and offline education. Conveniences in the educational process, shortcomings and problems arising in both educations, and their solutions are highlighted.

Key words: *Modern technology, online education, offline education, teacher, student, isolation, lesson, internet*

Kirish

Hozirgi XXI asr texnologiyalar rivojlangan davr. Bu davr insoniyatga har tomonlama qulayliklar yaratish va yordam berish uchun xizmat qilmoqda. Ushbu qulayliklar barcha sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasiga ham kirib keldi. Hamda ta'lim jarayonini tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Aynan bu davr natijasida offlayn ta'lim bir qatorda onlayn ta'lim ham rivojlandi. Yodingizda bo'lsa, 2019-yilda butun dunyo online - ta'limni joriy etish muammosi bilan to'qnashdi. Covid-19 pandemiyasi sabab maktab o'quvchilaridan to universitet talabalarigacha masofaviy ta'lim olishdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Bugungi kun talabi ta'limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rganishdagi yondashuvlar ham o'zgarimoqda. Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va isloh qilish davlat ahamiyatidagi eng ustivor vazifalar qatoriga kiradi. O'quvchi o'zlashtirgan bilimni amaliyotda qo'llay bilishi uchun uni o'z vaqtida mustahkamlashi, boshqa

tushunchalarni o'rganishda qo'llash bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashga olib keladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, onlayn-ta'lim ko'pgina ko'rsatkichlarga ko'ra an'anaviy ta'limdan sifat borasida qolishmaydi. Amerika universitetlari o'qituvchilarining 77 foizi onlayn-ta'limni sifat jihatdan an'anaviy ta'lim bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Kursning samaradorligi asosan tinglovchiga bog'liq: masofaviy ta'lim ko'proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi.

Onlayn ta'lim tashkilotchilari ma'ruza yoki mahorat-darslariga turli shaharlar va mamlakatlardan o'qituvchilar va professionallarni taklif qilishi mumkin. Bu esa ta'lim hamda diplom obro'si va sifatini oshiradi.

Aksariyat insonlar onlayn-ta'lim hech qachon an'anaviy ta'limning o'rnini bosa olmaydi, deb o'ylaydi. Ammo, bir boshqa guruh insonlar ularning fikriga qo'shilmaymiz: onlayn-ta'lim an'anaviy ta'limdan-da samarali bo'la oladi-deyishmoqda va buni quyidagicha ifodalashmoqda.

Onlayn-ta'lim hozirda u qadar rivojlanmaganligi sababli, unga bepisand qarash, mashinalar ishlab chiqarilayotgan vaqtda otlardan foydalanishni afzal ko'rishga teng.

Tan olish kerakki, onlayn o'qitish ham katta cheklovlarga ega. Onlayn o'qitishning eng katta kamchiligi shundaki, u talabalarning ijtimoiy amaliyot qobiliyati, hamkorlik muammosi bo'yicha aniq cheklovlarga ega.

Yuzma-yuz o'qitish o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hissiy muloqotga yordam beradi va talabalar yaxshi o'quv muhitiga tushib qolishlari uchun yordam beradi. Ammo shu bilan bir qatorda oflayn ta'limning ham kamchilik va muammolari mavjud.

An'anaviy ta'limdagi eng katta muammo — bu barcha uchun bir xil bilim berish uslubi ishlatilinishidir. Istalgan sinfdagi tengdoshlaridan ortda qolgan yoki oldinga o'zib ketgan o'quvchilarni uchratishimiz mumkin. Hatto, eng yaxshi o'qituvchi ham qachonlardir o'zidan ushbu savolni so'ragan: **“Men, ko'proq o'rganuvchilar mavzuni tushunishi uchun sekinlashishim kerakmi yoki o'quv-rejani tugatish uchun mavzularni tezroq o'tishim kerakmi?”**

Mana shuning uchun, ular tezlik va ta'lim berishda o'rta holatda saqlashga harakat qiladi. Onlayn ta'lim bu muammoni hal qila oladi. Negaki, u individual ta'lim berishga asoslangan va ta'lim olish jarayoni o'quvchi hamda uning moslashuvchanligiga qarab o'zgaradi.

Onlayn ta'limning ham ba'zi bir kamchiliklari bor. Bular:

1. Monitor yoki telefon ekranlarida diqqatni jamlay olmaslik. Ko'pgina talabalar uchun onlayn ta'limning eng katta muammolaridan biri bu uzoq vaqt davomida ekranga e'tibor berib o'qishni davom ettirish. Shu sababli, o'qituvchilar o'zlarining onlayn

darslarini aniq, qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazib,, o'quvchilarning diqqatini darsga qaratishga yordam berishlari shart.

2. Texnologiya masalalari. Onlayn darslarning yana bir eng muhim muammosi - bu Internetga ulanish. So'nggi bir necha yil ichida Internetning aholiga kirib borishi o'sib borayotgan bo'lsa-da, kichik shahar va qishloqlarda, hali ham internet bilan muammolar mavjud.

3. Izolyatsiya hissi. Talabalar o'z tengdoshlari davrasida ko'p narsalarni o'rganishlari mumkin. Biroq, onlayn darsda talabalar va o'qituvchilar o'rtasida minimal jismoniy shovqinlar mavjud. Bu ko'pincha talabalar uchun izolyatsiya tuy.usini keltirib chiqaradi.

4. O'qituvchilar malakasini oshirish. Ko'pincha o'qituvchilar texnologiyani juda oddiy tushunishadi. Ba'zan, ular hatto onlayn darslarni o'tkazish uchun zarur manbalar va vositalarga ega emaslar.

5. Ekran vaqtini boshqarish. Ko'pgina ota-onalar farzandlarini ekranga qarab katta vaqt sarf qilishlari sog'liq uchun zararli ekanligidan xavotirda. Ekran vaqtining ko'payishi onlayn ta'limning eng katta tashvishlari va kamchiliklaridan biridir. Ba'zan o'quvchilar ekran oldida o'tirish tufayli yomon holat va boshqa jismoniy muammolarga duch kelishadi.

Xulosa

Buni kimdir to'g'ri va ijobiy, kimdir tanqidiy nazar bilan qarshi oldi. Kimdir an'anaviy ta'lim shaklini ma'qul ko'rsa, boshqalar onlayn ta'limni afzal deb biladi. Onlayn va an'anaviy mashg'ulotlarni taqqoslash odat tusiga kirib qolgan, ammo onlayn va oflayn o'qishni qarama-qarshi qo'yish noto'g'ri. Ikkala format ham o'z xususiyatlariga ega. Shubhasiz, ikkisining ham afzalliklari bor, ularning har biri alohida holatlar uchun samaralidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida onlayn ta'lim berish faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" 295-son qaror. 01.06.2022 y.

2. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. –Toshkent. “Sano - Standart” MCHJ bosmaxonasi, 2010.

3. medium.com

4. blog@bilimonlayn.uz.

5. EduOn.uz

6. [https://t.me/uzvip media](https://t.me/uzvip_media)

7. oliygoh.uz